



INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY QILISHNING XORIIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

*Voxobova Muniraxon Sadirdinovna – ilmiy rahbar
Adashaliyeva Mexribonu Mirzoxid qizi - talaba
Namangan davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarda erishilgan eng ilg'or tajribalar, xorij tajribalarini mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari to'g'risida bayon etilgan. Inklyuziv ta'limni tashkil qilishdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus pedagogika, ta'lim, inklyuziv ta'lim, bola, alohida ta'lim ehtiyoji, aqliy faoliyat, ota-onा.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РЕАЛИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье описывается понятие инклюзивного образования, его сущность, наиболее передовой опыт развития инклюзивного образования в зарубежных странах, а также возможности применения зарубежного опыта в нашей стране. Обсуждались мнения об основных проблемах в организации инклюзивного образования и их решениях.

Ключевые слова: Специальная педагогика, образование, инклюзивное образование, ребенок, специальные образовательные потребности, мыслительная деятельность, родители.

FOREIGN EXPERIENCE OF IMPLEMENTING INCLUSIVE EDUCATION

Annotation: This article describes the concept of inclusive education, its essence, the most advanced experience of developing inclusive education in foreign countries, as well as the possibilities of applying foreign experience in our country. It also contains opinions on the main problems and their solutions in organizing inclusive education.

Keywords: Special pedagogy, education, inclusive education, child, special educational needs, mental activity, parents.

KIRISH

Bugungi axborotlashgan murakkab bir sharoitda zamonaviy ta'lim tizimining muhim masalalaridan biri – inklyuziv ta'limni rivojlantirish va bu sohadagi ilg'or xorijiy tajribalarni ommalashtirishdan iboratdir. Statistik ma'lumotlarga



qaraganda, bugungi kunda jami aholining taxminan 7-10 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadigan alohida ta'lismi ehtiyoji bor bolalarga ta'lismi-tarbiya berish eng muhim masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inklyuziv ta'lismi haqida so'z borganda, eng avvalo, uning ta'rifiga to'xtalib o'tish joiz. Inklyuziv ta'lismi – bu asosiy maktablarda alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatalidigan atama. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lismi tashkilotlarida inklyuziv ta'lismi tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda "Inklyuziv ta'lismi – alohida ta'lismi ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lismi oluvchilar uchun ta'lismi tashkilotlarida ta'lismi olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lismi" – deb keltirib o'tilgan [1].

Shuningdek, O.Abdullayevaning fikriga ko'ra: "Inklyuziv ta'lismi rasmiy ta'lismi tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo'lishi va ta'lismi sifati ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi shart [2].

Inklyuziv ta'lismi – bu bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiluvchi, barcha bolalarga teng munosabatni ta'minlaydigan, ammo maxsus ta'lismi ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida shart-sharoit yaratilishini talab etadi. Inklyuziv ta'lismi hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfonada, bir xil sharoitda ta'lismi olishini anglatadi, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar sog'lam bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi lozim [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lismi rivojlantirishga bo'lgan e'tibor ortdi. Inklyuziv ta'lismi rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi ham muhim o'ringa ega.

Bugungi kunda jahondagi juda ko'plab mamlakatlarda inklyuziv ta'lismi tizimini joriy qilish va rivojlantirish borasida katta amaliy tajribalar mavjud. Xususan, Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lismi muassasalariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lismi tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo'natgirilgan qo'shimcha ta'lismi xizmatlarini ko'rsatish mas'uliyatidan ozod etilmaydi. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Avstriya, Germaniya, Rossiya, Belarus, Litva, Latviya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda ham inklyuziv ta'lismi tashkil qilish va rivojlantirishda o'ziga xos tajribalar shakllangan bo'lib, ulardan ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avstriyada 1945-yildan boshlab nogiron bolalarni differensial o'qitish tizimi tashkil etilgan bo'lib, bu ta'lismi tizimida barcha turdag'i nuqsonli bolalar o'qitala boshlandi. Ammo, 1980-yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lismi muassasalarida o'qitilishini talab qildilar. Natijada, 1983-yilga kelib Avstriya Ta'lismi vazirligi inklyuziv ta'lismi tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu ta'lismi modeli to'rtta turga ajratilib, inklyuziv sinflar, hamkorlik qiluvchi sinflar, kichik komplektli maxsus sinflar hamda yordamchi o'qituvchilar joriy qilingan oddiy sinflar tarzida shakllandi.

Inklyuziv sinflarda umumta'lismi maktablariga bittadan to'rttagacha maxsus ehtiyojli o'quvchilar qabul qilinadi. Bitta maxsus ehtiyojli o'quvchi ikkita sog'lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiyligi soni qisqartiriladi. Sinfda ikkita o'qituvchi ishlab, ulardan biri maxsus tayyorgarlikka ega bo'lib, bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg'ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o'qitiladi. Hamkorlik qiluvchi sinflar – ixtisoslashtirilgan va umumta'lismi maktablarining sinf o'qituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradilar. Kichik komplektli maxsus sinflarda 6-11 ta maxsus ehtiyojli o'quvchini jamlagan holda maxsus o'quv reja va dasturlar asosida o'qitiladi. Oddiy sinflarda esa 4 ta va undan ko'p maxsus ehtiyojli

o'quvchilar jamlanadi hamda maxsus tashxis qilish va korreksion metodikalarni q'llay oladigan o'qituvchi lavozimi joriy etiladi [4].

1979-yilda Germaniyada ta'lism to'g'risidagi majlis q atnashchilari tomonidan maxsus ehtiyojli bolalarni integratsiya ta'lism tizimida o'qitish konsepsiysi ishlab chiqildi. Bu konsepsiada integratsiyaning xilma xilligi va uning mazmun-mohiyati yoritib berildi. Germaniya ta'lism tizimida integratsiyalashning yangicha talqini o'quv materiallarini o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirish ishlari amalga oshirila boshlandi.

Litvada 1992-yil Madaniyat va maorif vazirining tashabbusi bilan maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lism tizimiga integratsiyalash modeli ishlab chiqilishiga tayyorgarlik ishlari boshlandi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Vilnyus universitetining maxsus pedagogika laborotoriyasi qoshida xorijiy va litvalik mutaxassislar, bolalar, psixiatrlar, psixologlar, logopedlar va pedagog-defektologlardan iborat mutaxassislar guruhi tuzildi. Bu guruh tomonidan "Maxsus ta'lism tizimining loyihasi" nomi bilan integratsion ta'lism tizimining boshlang'ich loyihasi ishlab chiqildi. 1993-yilda Litva Madaniyat va maorif vazirligi tomonidan "Maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lism muassasalarida yordam berish (imkoniyatlari) Tartibi" Qonuni tasdiqlandi.

Shveysariyada nuqsonli bolalarning ko'pchiligi umumta'lism muassasalarida ta'lism tarbiya olishlari odatga aylangan edi. Sinfda 4 ta o'qituvchi ishlardi, ularning 3 tasi umumta'lism dasturida ishlasa, qolgan 1 nafar o'qituvchi esa maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan defektolog o'qituvchi edi.

Buyuk Britaniya maxsus ta'lism muassasalarida ta'lism-tarbiya olayotgan og'ir darajadagi nuqsonli bolalarni integratsiyalash dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, qaysi maktabda integratsion ta'lism tizimi joriy etilgan bo'lsa, o'sha maktabga maxsus muassasalarda o'qitilayotgan bolalarning bir qismi qamrab olindi. Integratsiya tizimini yanada puxtarloq joriy etish maqsadida dasturlarga o'yinlar, jismoniy tarbiya, raqs va bir qancha amaliy mashg'ulotlar kiritildi.

1979-yilda Nikaragua Ta'lism vazirligi nuqsonli bolalarni o'qitish dasturini olib boruvchi maxsus bo'lim tashkil etdi. Bundan tashqari, nuqsonli bolalarni o'quv imkoniyatlarini tashxis qilish markazi va maxsus muassasalar hujjatlari axborot

bazasi yuzasidan ish yuritish markazlari ham ochildi. Mamlakatda ommaviy maktab sistemasida juda ko'plab qiyinchiliklar bo'lib, maktabga qatnamaydigan bolalarning soni juda yuqori edi. Nuqsonli bolalar ta'lumi maxsus segregatsion va ommaviy maktablarda integratsion sinflar shaklida tashkil etilgan. Maxsus maktablarda faqat og'ir nuqsonli bolalar o'qitilardi.

Xitoyda integratsiyalash jarayoni barcha umummillat ma'lumotlarini yig'ish, tajriba almashish, muloqot va fikr almashish, kadrlarni tayyorlash, maktab o'quv jarayonlarini isloh qilish, maktab xodimlari bilan uchrashuv va savol-javoblar o'tkazish hamda barcha axborotlarni yig'ib tahlil qilishdan boshlandi. Nuqsonli bolalar ta'lumi Xitoy ta'lim tizimida birmuncha yangi edi. Har bir tumanda integratsion ta'lim borasida seminarlar uyuştirildi. Bir qancha pedagogika institutlarida "Nuqsonli bolalar ta'lumi" nomli o'quv kurslari o'qitala boshlandi.

1996-yilda Hindistonda nuqsonli bolalarga ommaviy muassasalarda ta'lim tarbiya berish bo'yicha Davlat Dasturi ishlab chiqildi. YUNISYEFning hamkorligi asosida tuzilgan "Nuqsonli bolalarning integratsion ta'lim loyihasi" bo'yicha ish olib borila boshlandi. Bu loyiha Hindiston hukumati siyosati va etnik holatini hisobga olgan holda tuzilgan.

Laosda barcha bolalarning ta'lim olishini ta'minlash va ularning barcha huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi. 1993-yilda qizlar va nuqsonli bolalar ta'limini ta'minlash dasturi ish boshladи. Dasturning har bir ishtirokchisi joylarda loyiha mazmunini targ'ibot qiladi, inklyuziv ta'lim tizimi borasida treninglar uyuştirib, mutaxassislarni tayyorlaydi.

Tailandda esa og'ir va o'rta darajadagi nuqsonli bolalarni ommaviy maktablarga qabul qilish, o'qitishga va bunga o'qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashga oid o'quv loyihasi ishlab chiqildi. Radjbatandagi Suan Disit institutida o'tkazilgan ikkita Konferensiyadan so'ng inklyuziv maktablarning 3 ta yo'nalishdagi konsepsiysi ishlab chiqildi. Birinchi yo'nalish qo'shimcha guruh bo'lib, u administratorlar, o'qituvchilar va ota-onalardan tashkil topadi. Ikkinci yo'nalish og'ir va o'rta darajadagi nuqsonli hamda sog'lom bolalarni ommaviy sinflarda o'qitishni tashkillashtiruvchi o'qituvchilar va ota-onalardan tashkil topgan. Uchinchi

yo‘nalish esa sinflar uchun individual rejalarни ishlab chiqishni qo’llab-quvvatlovchi administratorlar, o‘qituvchi volontyorlardan iborat.

Rossiyada maxsus ta’lim ikkita yo‘nalishada, ya’ni differensial va integratsiya tarzida tashkil etilgan. Differensial ta’lim 8 ta yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. So‘nggi paytlarda Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa Rossiyaning bir qator shaharlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalg etish borasida ilmiy izlanishlar va psixologo-pedagogik amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ozarbayjonda 1998-yilda Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani Radifikatsiya qilinib, 2001-yilda esa “Maxsus ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2002-yilga kelib inklyuziv ta’lim borasidagi loyihamar faoliyati yuzasidan 10 dan ortiq me’yoriy hujjatlar va loyihamar ishlab chiqildi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning Milliy dastur rejasи ishlab chiqilib, u 2 kismdan iborat bo‘ldi. Birinchi qismi inklyuziv ta’lim borasidagi loyihamar faoliyatidan iborat bolsa, ikkinchi qismini esa inklyuziv ta’limning moddiy-texnik asosini yaxshilash masalalari tashkil qiladi.

Qozog‘istonda 2003-yilda “Maxsus ehtiyojli bolalarni korreksion ijtimoiy va tibbiy-pedagogik qo’llab-quvvatlash haqida”gi Qonun qabul qilindi. Bu Qonun asosida maxsus ehtiyojli bolalarga umumta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya berish, korreksion pedagogik ish olib borish maqsadida rehabilitatsion markazlar, psixologo-pedagogik korreksiya xonalari, maxsus mакtab va maktabgacha ta’lim muassasalari qoshida qisqa muddatli sinflar (guruхlar) tashkil etildi. Inklyuziv maktablarga kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta’limga “Maxsus pedagogika”, “Maxsus psixologiya” va “Maxsus metodika” kurslari kiritildi.

XULOSA

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’lim tizimining joriy qilinishida juda ko‘plab yutuqlarga erishilgan bolsa-da, ammo bu ta’limni joriy qilishda va uning samaradorligini oshirishda bir qator muammolar va kamchiliklar ham kuzatilmoqda. Jumladan:

- Ota-onalar uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv qo’llanmalarning yetarli emasligi;

- Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limga joriy etish ko'lami davlatning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida q ayd q ilinmaganligi;
- Ayrim davlatlarda nogiron bolalarga nisbatan jamiyatdagi salbiy munosabatlarning saqlanib qolayotganligi;
- Maxsus ehtiyojli bolalarning hamjamiyatda ko'rinxmaslik muammosi;
- Moddiy mablag'lar bilan bog'liq muammolar;
- Sinforda o'quvchilar sonining ko'pligi;
- Kambag'allik muammolari;
- Bolalarni jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
- Maxsus ehtiyojli bolalarning boshqalarga qaramligi;
- Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar muammosi;
- Kadrlar tayyorlash borasidagi muammolar va hokazo.

Albatta, ushbu muammolarni hal etish oson emas. Lekin, mazkur muammolarning hal qilinishi qashshoqlik va kambag'allikdan qutulishga, maxsus ehtiyojli bolalarning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishiga, kamsitishlarni oldini olishga va ta'limga sifatini yaxshilashga imkon beradi.

Xulosa sifatida alohida ta'kidlab o'tish joizki, inklyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga sohasidagi huquqlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ta'limga shakli hisoblanib, bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, ular faoliyatidagi ayrim jihatlarni mamlakatimiz ta'limga jarayonida qo'llash foydadan holi bo'lmaydi. Bunda inklyuziv ta'limga rivojlantirishning alohida tamoyillarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Zero, inklyuziv ta'limga tizimli, samarali joriy etish va rivojlantirish imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ishlarning shakllari, usullari, ko'lami va sifati bilan uzviy bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limga tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sodn Qarori.
2. <https://yuz.uz/uz/news/inklyuziv-talim--barcha-uchun-moljallangan-talim>
3. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'limga nazariya va metodika (darslik). Chirchiq – 2022-yil.



4. Р.Шомаҳмудова, А.Бердиева. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиши услублари. Тошкент – 2008-yil.